

QISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDA KORXONALAR MONITORINGIDA AGROSANOAT MAJMU'I USTIDAN NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI

Yusupov Nizomiddin Ro'zimurod o'g'li

**O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
tayanch doktoranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15174250>

Qishloq xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini bermiqda. Ushbu jarayonda korxonalar monitoringi faoliyati muhim o'rin tutadi, chunki u ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish, resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan agrosanoat majmuida davlat nazorati tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan farmonlar asosida, qishloq xo'jaligida raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya tomonidan texnika holatini nazorat qilish yo'nalishida raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda mavsum davomida 41 dan ortiq turli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu qarorlarning aksariyati raqamlashtirish obyekti bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ekish, yetishtirish, saqlash va tashish jarayonlarida hosilning 31% yo'qolmoqda. Shunday sharoitda yer, suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi "aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalari muhim ahamiyatga ega.

Sohaning texnik va texnologik bazasi agrosanoat majmuasining umumiy rivojlanishini belgilaydi. Bu chorvachilik va o'simliklarni yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish, yer unumdorligini oshirish va qo'l mehnatini mexanizatsiyalashgan faoliyat bilan almashtirishda namoyon bo'ladi. Texnikalarning yetishmasligi fermerlarning imkoniyatlarini cheklaydi va mahsulot tannarxida mehnat sarfini oshiradi. Mavjud texnik vositalardan samarali foydalanish, ularning xizmat muddatini uzaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish takroriy ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi.

Ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichi yuqori tezlikdagi texnologik taraqqiyot bilan tavsiflanadi. XXI asrda kompyuterlar va ular bilan birga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotiga, jumladan, iqtisodiyotning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalariga shiddat bilan kirib keldi. Qishloq xo'jaligi ham bundan mustasno emas. Bugungi kunda axborotlashtirishni jadallashtirish kelajakdagi rivojlanish barqarorligini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi ko'plab davlatlar milliy iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri sifatida ko'plab qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Bu jarayonlarni hal qilish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

- Samarali raqamli texnologiyalardan ilmiy asoslangan foydalanishni takomillashtirish;

- Inson kapitalini qishloq xo'jaligida oshirish;
- Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion ilg'or texnologiyalarni tatbiq etgan holda ularning xavfsizligini oshirish.

Yuqoridagi omillarga e'tibor qaratish qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda agrosanoat majmuasini modernizatsiya qilish imkoniyatlari juda katta. Dunyoda qishloq xo'jaligi an'anaviy sanoatdan yuqori texnologiyali sanoatga aylanmoqda va u ko'plab amaliy muammolarni hal qilish uchun innovatsion yechimlar va ishlanmalar orqali yangi bozorlarni yaratishga qodir.

Raqamli transformatsiyaga sarflanadigan global xarajatlar 2022-yilda 1,85 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 2,16 trillion AQSH dollari va 2026-yilga kelib 3,4 trillion AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda iqtisodiyotning har bir tarmog'ida raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Agrar sohada raqamlashtirish iqlim o'zgarishiga moslashish, xavflarni kamaytirish va ekinlarning hosildorligini oshirishga yordam beradi. Resurslardan samarali foydalanish, ilmiy asoslangan yondashuvlar yordamida mahsulot tannarxini kamaytirish, uning sifatini va raqobatbardoshligini oshirish raqamlashtirishning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishga raqamli texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilmagan xarajatlarni 23% gacha qisqartiradi. Mavjud mobil yoki onlayn ilovalardan foydalangan holda uskunalar, sensorlar, sun'iy yo'ldoshlar va boshqa tashqi ilovalardan olingan ma'lumotlar optimal qarorlar qabul qilish uchun ishlatiladi.

Yangi texnologiyalar mahsulot sifatini kafolatlaydigan va xaridorlarning ehtiyojlarini qondiradigan daladan iste'molchigacha bo'lgan mahsulotni ilgari surish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Shu bois ham, raqamlashtirish qishloq xo'jaligi faoliyatini tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini, jumladan, agrobiznes subyektlarini moliyalashtirish, sotish bozorlarining mavjudligi va eksportni rivojlantirishning asosiy vositasiga aylanadi. Qishloq xo'jaligi faoliyatini raqamlashtirish raqobatbardoshlik va mehnat unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sohaga investitsiyalarni jalb etish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi raqamlitexnologiyalarni faol qo'llash uchun eng mos tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuzlab gektar yer maydonlarida dalalarni bir vaqtning o'zida monitoring qilish, ma'lumot yig'ish va ularni tahlil qilish imkoniyatining mavjudligi bu sohada raqamli transformatsiyani tezlashtiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida ob-havo sharoitlari, mavsumiy quyosh nuri, hasharotlar va qushlar harakati, maxsus o'g'itlar ta'siri, sug'orish va hosil yig'im-terim davrlari tahlil qilinadi va ularning hosilga ta'siri oldindan modellashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi rasmiy saytida (<https://agroinspeksiya.uz>) e'lon qilingan tahliliy materiallarga ko'ra, qishloq xo'jaligi texnikalari monitoringi yo'nalishida ham aniq raqamli yechimlar ishlab chiqilgan. Xususan, mamlakat bo'yicha 170 mingdan ortiq qishloq xo'jaligi texnikasining texnik holatini raqamli tarzda nazorat qilish, ularni diagnostika qilish, texnik xizmat ko'rsatish davriyligini avtomatik aniqlash va ma'lumotlarni yagona baza orqali boshqarish yo'lga qo'yilgan. Bu tizim agrotexnika vositalarining ishlash muddatini uzaytirish,

buzilishlar oldini olish va ishlab chiqarish jarayonida to'xtalishlarni kamaytirish imkonini bermoqda.

Saytdagi ma'lumotlarda qayd etilishicha, davlat tomonidan tashkil etilgan elektron axborot tizimida texnikalarning ish holati, ishlab chiqarilgan yili, xizmat ko'rsatish muddati, zaxira qismlarning mavjudligi va joylashuvi haqidagi to'liq axborot mavjud. Bu esa, o'z navbatida, raqamli monitoringning davlat miqyosida ham strategik boshqaruvga xizmat qilishiga dalolat beradi. Bunday tizim orqali nafaqat texnik vositalarning ish holati nazorat qilinadi, balki ularni samarali taqsimlash, modernizatsiya qilish, texnik xizmatlarni rejalashtirish va sohani avtomatlashtirish imkoniyati ham yaratiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, monitoringning texnik holatga doir yo'nalishlari O'zbekiston tajribasida amaliy natijalar bermoqda. Bu tajriba nafaqat texnikaning ishlashiga, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimining umumiy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, fermerlar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasidagi axborot almashinuvi tizimi aniq ma'lumotga asoslangan bo'lib, sohadagi texnik salohiyatni aniq tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi 794-sonli qarori – "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi – "Monitoring texnik holat: nima amalga oshirildi?" maqolasi.
3. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). (2022). "Digital Agriculture: Transformation of Food Systems for People, Planet and Prosperity".
4. World Bank. (2021). "Digital Technologies in Agriculture and Rural Areas: Briefing Paper".
5. Bekchanov, M., & Karimov, B. (2020). "Raqamli texnologiyalarni O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga integratsiyalash: muammo va imkoniyatlar". Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, №2, 45–53.
6. Sultanov, A., & G'aniyev, R. (2023). "Agrotexnologik monitoring tizimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi". Ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal, №1(15), 22–30.